

PAPER

# KASB-HUNAR MAKTABI O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (ADABIYOT FANI MISOLIDA)

Kenjayev To'liqin <sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>NDPU pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-kurs magistranti

\* kenjayev@gmail.com

## Abstract

Ushbu maqolada kasb-hunar maktabi o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi, o'quvchilarning adabiy jarayondagi ishtirokini faollashtirish texnologiyalari, zamonaviy o'qitish usullarining roli hamda adabiyot fanining ta'siri, kitob yoshlar hayotidagi o'rni va ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi.

**Key words:** kitobxonlik, kasb-hunar maktabi, adabiyot saboqlari, madaniyat, innovatsion texnologiyalar, o'quvchi faolligi.

## Kirish

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni har tomonlama yetuk shaxs etib voyaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizni kitob o'qishga, mutolaa madaniyatiga o'rgatmasak, hech qachon ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalay olmaymiz" [1]. Ayniqsa, kasb-hunar maktabi o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ularni badiiy asarlarni chuqur anglashga o'rgatish, o'z fikrini ifoda eta olish malakasini mustahkamlash dolzarb vazifalardan sanaladi. Ma'rifat, ziyo, komillikka erishish avvalo mutolaa bilan, ilm-fan sirlarini puxta egallash bilan qo'lga kiritiladi. Bu borada eng yaqin ko'makchi kitobdir. Kitob insoniyat tomonidan yaratilgan betakror mo'jizadir. Kitob insonni tarbiyalash xususiyatiga ega bo'lgan eng yaqin do'st. Kitob haqida uning insonni kamolotga yetishidagi o'rni haqida qimmatli fikrlar, tashbehlar nihoyatda ko'pdir.

Yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning

olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar ko'zda tutilgan. Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta'lim muassasasi» kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan. Kitobxonlik madaniyati – bu shaxsning kitobga nisbatan ongli munosabati, mutolaa qilish, o'qigan asardan fikr chiqarish, uni hayotga tatbiq eta olish qobiliyatidir. Aynan kasb-hunar maktablarida bu madaniyatni shakllantirish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

– o'quv dasturlari orqali (xususan, adabiyot fanida);

– sinfdan tashqari madaniy-ma'rifiy ishlar orqali.

O'quvchilar o'z kasbini egallabgina qolmasdan, keng dunyoqarashli, ma'naviy boy shaxs sifatida shakllanishi uchun kitobxonlik asosiy omil hisoblanadi [2].

Adabiyot fanining o'rni; Adabiyot darsi — o'quvchida tafakkur va estetik didni shakllantiradigan, milliy va umumiy qadriyatlarni singdiradigan asosiy fanlardan biridir. O'quvchilar adabiyot orqali o'z fikrini ravon ifoda qilishni, tahliliy fikrlashni, obrazli idrok etishni o'rganadi. Bu jarayonda o'qituvchining metodik yondashuvi muhim ahamiyatga ega.

Kitobxonlikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar:

Kasb-hunar maktabi o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirishda quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ijobiy samara beradi:

–“Klaster” texnologiyasi – o'quvchiga asardagi asosiy g'oya, muammolar, obrazlar o'rtasidagi aloqalarni grafik tarzda ko'rsatishga yordam beradi.

–“Insert” texnologiyasi – o'qish jarayonida o'quvchining fikr yuritish, qiziqish va tahlil qilish ko'nikmasini oshiradi.

–“Aqliy hujum”, “Rolga kirish” kabi interaktiv usullar – asar syujeti asosida o'quvchilarni ijodiy mushohadaga chorlaydi.

–Media va raqamli vositalar – elektron kitoblar, audiokitoblar, onlayn forumlar orqali o'quvchining o'qishga qiziqishini oshirish mumkin [3].

–Kasb-hunar maktabi sharoitida amaliy yondashuvlar

Adabiyot darslarida o'quvchilar ishtirokida quyidagi amaliy ishlar kitobxonlikni kuchaytiradi:

\*“Kitobxonlar klubi” tashkil qilish;

\*Badiiy asar asosida kichik sahna ko'rinishlari;

\*“Eng faol kitobxon” tanlovlari;

\*Mustaqil mutolaa daftarlari yuritish;

\*O'qilgan asarlar bo'yicha “minuta-sharh” mashqlari.

Bu kabi usullar orqali o'quvchi darsda faollashadi, fikrini aniq, lo'nda ifoda qilishni o'rganadi va o'qishga bo'lgan munosabati ijobiy shakllanadi [4].

Muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Kasb-hunar maktablarida kitobxonlik madaniyatining rivojlanishiga bir qator omillar to'sqinlik qilmoqda:

–kitob fondining kamligi;

–raqamli texnologiyalarga haddan tashqari bog'lanish;

–o'quvchilar orasida mutolaa qiziqishning sustligi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagilar taklif etiladi:

–elektron kutubxonalar tashkil qilish;

–ota-onalar bilan hamkorlikda “Kitobxonlik haftaligi” o'tkazish;

–har oy “Bir kitob – bir munozara” loyihasini yo'lga qo'yish [5].

Kasb-hunar maktabi o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish — ularni shaxsiy va kasbiy rivojga olib boruvchi muhim omildir. Adabiyot fanida interaktiv va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni mustaqil o'ylashga, kitob orqali hayotiy saboqlarni anglashga o'rgatadi. Bu esa, o'z navbatida, millatimiz ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va ma'rifat yo'lida” – T.: “O'zbekiston”, 2021
2. To'raqulova N. “O'quvchilar kitobxonligini shakllantirishdagi metodik yondashuvlar”, – T.: TDPU nashriyoti, 2022.
3. Rajabova N. “Pedagogik texnologiyalar asoslari” – T.: “Fan va texnologiya”, 2021.
4. Bozorova M. “Adabiyot fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar”, // “Ta'lim va fan” jurnali, 2023, №1.
5. Raxmonqulova Z. “Kasb-hunar maktabida o'quvchilar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borish metodikasi”, – Andijon: 2022.